

## TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION USULLAR VA TEXNOLOGIYALAR

Allaberdiyeva Surayyo – Student of  
Termez State University Faculty of Foreign Philology  
Khasanova Kamila Bakhtiyorovna –  
Senior Lecturer of the Department of  
English Language and Literature, Faculty  
of Foreign Philology, Termez State University.

**ANNOTATSIYA :** *Mazkur maqolada chet tillarini o'qitishda innovatsion usullar va texnologiyalarning o'rni, ularning o'quv jarayoniga integratsiyasi hamda ta'lif samaradorligini oshirishdagi roli yoritilgan. Dars jarayonida multimedia vositalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, masofaviy va aralash ta'lif, o'yinli metodlar, loyiha asosli o'qitish, interaktiv strategiyalar kabi zamонавија yondashuvlar orqali o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishi, faol ishtiroki va mustaqil fikrlashi kuchaytiriladi. Maqolada til o'r ganishda motivatsiya, kreativlik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni tahlil qilinadi.*

**ABSTRACT:** *This article examines the role of innovative methods and technologies in foreign language teaching, their integration into the educational process, and their impact on improving learning outcomes. Through the use of modern approaches such as multimedia tools, ICT, distance and blended learning, gamification, project-based instruction, and interactive strategies, students' motivation, engagement, and independent thinking are enhanced. The paper analyzes how innovation fosters creativity and develops communicative competence in language learning.*

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье рассматривается роль инновационных методов и технологий в обучении иностранным языкам, их интеграция в учебный процесс и повышение эффективности образования. Через современные подходы, такие как мультимедийные средства, информационно-коммуникационные технологии, дистанционное и смешанное обучение, игровые методы, проектное обучение и интерактивные стратегии, усиливается интерес учащихся к знаниям, их активное участие и развитие самостоятельного мышления. В статье анализируется влияние инновационных технологий на мотивацию, креативность и формирование коммуникативных компетенций при изучении языков.

**KALIT SO'ZLAR:** Innovatsion texnologiyalar, chet tili ta'limi, interaktiv metod, AKT, multimedia, gamifikatsiya, masofaviy ta'lim, loyiha asosli yondashuv, virtual muhit, o'quvchi faolligi.

**KEY WORDS:** Innovative technologies, foreign language education, interactive methods, ICT, multimedia, gamification, distance learning, project-based approach, virtual environment, learner engagement.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Инновационные технологии, обучение иностранным языкам, интерактивные методы, ИКТ, мультимедиа, геймификация, дистанционное обучение, проектный подход, виртуальная среда, активность учащихся.

Zamonaviy ta'lim tizimi har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'limni tashkil etishni talab etmoqda. Ayniqsa, tillarni o'qitishda faqat nazariy yondashuvlar bilan cheklanib qolish o'quvchilarning til o'rGANISHGA bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. Shu bois, innovatsion texnologiyalarni o'quv

jarayoniga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu texnologiyalar o‘quvchini faollashtiradi, ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va amaliy bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Innovatsion metodlar yordamida tashkil etilgan

darslar o‘zining interaktivligi, real hayotga yaqinligi va ijodiy yondashuvi bilan ajralib turadi.

Avvalo, multimedia vositalarining roli alohida e’tiborga loyiq. Darslarda audio, video, animatsion materiallar, ingliz tilidagi filmlar, musiqalar yoki interaktiv slaydlar orqali til o‘rgatish jarayoni jonlanadi. Ayniqsa, fonetik va eshitib tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishda audiovizual vositalar katta samara beradi. O‘quvchilar tinglab anglash orqali talaffuz, intonatsiya, urg‘u va grammatik strukturalarni tabiiy muhitda o‘zlashtiradilar.

Shuningdek, axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) chet tili o‘qitishining yangi bosqichini boshlab berdi. Internet platformalari (Kahoot, Padlet, Moodle, Zoom, Quizlet) orqali o‘tkaziladigan interaktiv darslar, onlayn testlar, video konferensiylar orqali mashg‘ulotlar o‘quvchini darsdan tashqari vaqtda ham bilim olishga undaydi. Bunday darslar vaqt va makon chegaralarini yo‘q qiladi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratadi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta’lim shakllari — sinxron va asinxron darslar keng tatbiq etildi va bugungi kunda ular ta’limning barqaror shakliga aylanmoqda.

Innovatsion metodlar orasida gamifikatsiya — o‘yin asosida o‘qitish usuli — katta ahamiyatga ega. "Chain story", "Find the mistake", "Warm-up games", "Who am I?", "Picture description", "Merry Riddles", "Translator’s duel", "Quiz battle" kabi topshiriqlar o‘quvchilarda sog‘lom raqobat muhitini yaratadi, jamoada ishslash, tez va aniq fikrlash, shuningdek, yangi so‘z va iboralarni amaliy muhitda o‘rganish imkonini beradi. O‘yinlar orqali til o‘rganish o‘quvchilarda darsga nisbatan ijobiy psixologik kayfiyatni shakllantiradi.

Loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning) innovatsion metod sifatida o‘quvchilarning mustaqil izlanish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Til

o‘rganuvchilar sayohat broshyuralari, taqdimotlar, ingliz tilidagi maqolalar, intervular yoki vloglar yaratish orqali tilni faqat grammatik qoidalar asosida emas, balki real muloqot vositasi sifatida qabul qilishadi. Shu tariqa, ularning ijodkorligi, ijtimoiy faolligi, o‘z fikrini erkin ifoda etish salohiyati shakllanadi.

Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchidan ham yuqori darajadagi tayyorgarlikni talab qiladi. O‘qituvchi doimiy ravishda yangi platformalar, ilovalar va metodlar bilan tanishib borishi, ularni dars jarayoniga to‘g‘ri integratsiyalashi lozim. Shu bilan birga, har bir innovatsion texnologiyani didaktik maqsadga muvofiq tanlash muhim. Zero, texnologiya vosita, maqsad esa samarali o‘qitishdir. O‘quvchi markazli yondashuv, individual tempda o‘rganish imkoniyati, differensiallashtirilgan topshiriqlar, real va virtual muhitda kommunikatsiya imkoniyatlari — bularning barchasi innovatsion texnologiyalarning asosiy afzalliklaridandir.

Shuningdek, chet tili o‘qitishda virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari ham keng imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, o‘quvchi VR yordamida xorijiy shaharlar bo‘ylab virtual sayohat qilishi, xorijlik mijoz bilan muloqot qilish tajribasini olishi mumkin. Bu esa tilni faqat sind xonasi doirasida emas, balki real hayotiy holatlar asosida o‘rganishga imkon beradi. **Xorijiy tilni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muammosi** so‘nggi o‘n yilliklarda ayniqla dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu holat texnik ta’minotning umumiylar darajasining oshishi, metodikaning o‘zini doimiy ravishda eng samarali, qulay va tushunarli usullarni izlashga qaratilganligi bilan izohlanadi. Bunday yondashuv “ko‘p qutbli dunyoda maksimal darajadagi o‘zaro tushunuvga erishish”ga qaratilgan ta’lim usullarining yaratilishini taqozo etadi [7]. Hozirgi sharoitda mehnat bozorida mutaxassisiga bo‘lgan talab, uning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan nutq kompetensiyasiga (og‘zaki va yozma), samarali muloqot qila olish qobiliyatiga, nutq orqali ta’sir o‘tkazish va ishontirish metodlariga egaligiga bog‘liq.K.D. Ushinskiy shunday degan edi: “Bola atrofidagi xalqning ma’naviy hayotiga faqat ona tili vositasida kirib boradi...” [8].

Xorijiy til – bu o‘qitiladigan fan bo‘lib, uning kognitiv (bilimga asoslangan) qiymati nihoyatda yuqori. Bunday darslarda fikrlash shakllanadi, ona tiliga muhabbat uyg‘otiladi, umuminsoniy qadriyatlar til orqali anglanadi, shaxs tarbiyalanadi, til vositasida bolalarining intellektual rivojlanishi ta’minlanadi, boshqa barcha fanlarni o‘zlashtirish sodda bo‘ladi. Jamiyat insonparvarligining til o‘qitish orqali ifodasi – bilim doirasini kengaytirishga, o‘quvchining intellektual taraqqiyoti darajasini oshirishga bo‘lgan intilishdan iboratdir. An;anaviy ta’lim tizimi - jamiyat ehtiyojlaridan bir oz ortda qolmoqda. Zamonaviy ta’lim konsepsiysi o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi asosiy maqsadni belgilab berdi – bu o‘quvchilarda jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv, mehnat bozoriga faol moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bu esa, o‘z navbatida, ta’limda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Innovatsion usullar o‘quvchilarning o‘quv va bilish faoliyatini tashkil etishda yangi uslubiy yondashuv bilan ajralib turadi.

**Umuman olganda, strategiyalarni ikki guruhga ajratish mumkin:** o‘rganishga bevosita ta’sir qiluvchi strategiyalar va o‘rganishni qo‘llab-quvvatlovchi strategiyalar. Birinchi guruhga quyidagilar kiradi: o‘quvchilar tomonidan materialni tushunish uchun qo‘llaniladigan kognitiv strategiyalar, ma’lumotni xotirada saqlab qolish uchun yodlash strategiyalari, hamda muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengishga yordam beruvchi kompensator strategiyalar. Ikkinci guruh esa o‘rganish uchun zarur sharoitlarni yaratish va tilni o‘zlashtirishda yuzaga keladigan psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion usullar va texnologiyalar orqali tillarni o‘qitish — bu faqatgina texnik yangilik emas, balki pedagogik tafakkurda ham tub o‘zgarishlarni anglatadi. Bu usullar yordamida o‘quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki mustaqil izlanish orqali oladi. Har bir o‘quvchi o‘z tempida, o‘z qiziqishi asosida tilni o‘rganadi va dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Kelajak ta’limi uchun innovatsion yondashuvlar — bu zamonaviy ta’limning tayanch ustuni bo‘lib, raqobatbardosh, bilimdon, tashabbuskor shaxsni shakllantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1 .Achilova R.T. *The Use of Modern Innovative Technologies in Foreign Language Teaching and Its Effectiveness.* Science and Innovation Journal, 2023.
2. Alibekova G.N., Uralova N.A. *Innovative Teaching Methods in Teaching Foreign Language.* Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 2022.
3. Dr. Thammaiah R. B. *Innovative Techniques and Methods in Teaching English Language.* JETIR, 2021.
4. Nunan, D. (1996). *Communicative Language Teaching: An Introduction.* Cambridge University Press.
5. Brown, D. (2001). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy.* New York: Longman.
6. Scott, W.A., Ytreberg, L.H. (2000). *Teaching English to Children.* Longman.
7. Pedagogical workshops: theory and practice. Comp. N. I. Belova, I. A. Mukhina. St. Petersburg, 1998.
8. Slastenin V.A., Podymova L.S. Pedagogy: Innovative activity M.: IChP "Publishing house Master", 1997. – 456 p.
9. Mynbaeva A.K., Sadvakasova Z.M. (2009). *Innovative Teaching Methods or How Interesting It Is to Teach. A Study Guide.*
10. Rustamov I. (2020). *Interactive Learning Practices in Modern Education.* JSPI Archive.